



UDK:37.016:811.111

Mashhura XURRAMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: mashhuraxurramova9704@gmail.com

Zebiniso ALLAYAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: zeboallayorova51@gmail.com

O'zMU professori, PhD N. Sa'dullayeva taqrizi asosida

INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILARDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHI MUNOSABATINING AHAMIYATI (BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchi fikr-mulohazasining o'rni tahlil qilinadi. Nutq ko'nikmalari til o'rganishda eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, nafaqat lingvistik bilim, balki ravonlik va izchillikni ham talab etadi. Tadqiqotda turli xil mulohaza turlari - xatolar ustida ishlash, shakllantiruvchi va motivatsion fikr-mulohazalarning o'quvchilar nutq faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sinf sharoitida samarali fikr-mulohaza berishning amaliy strategiyalari muhokama qilinadi. Natijalar muntazam va samarali tanqid o'quvchilarning og'zaki nutq malakasini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi fikr-mulohazasi, og'zaki nutq ko'nikmalari, ravonlik, tuzatishga doir fikr-mulohaza, til o'rganish, sinfdagi muloqot, motivatsiya.

THE IMPORTANCE OF TEACHER FEEDBACK IN IMPROVING STUDENTS' SPEAKING SKILLS

Annotation

This article explores the significance of teacher feedback in developing students' speaking skills in English language learning. Speaking is considered one of the most challenging skills for learners, requiring not only linguistic knowledge but also confidence and fluency. The study highlights how different types of teacher feedback - such as corrective, formative, and motivational feedback - can influence students' performance. The paper also discusses practical strategies for providing effective feedback in classroom settings. The findings suggest that consistent and constructive feedback plays a crucial role in enhancing learners' speaking proficiency.

Keywords: teacher feedback, speaking skills, fluency, corrective feedback, language learning, classroom interaction, motivation.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ ПРЕПОДАвателя В ПОВЫШЕНИИ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье анализируется роль обратной связи со стороны преподавателя в процессе обучения английскому языку, а именно в развитии устных речевых навыков учащихся. Устная речь считается одним из наиболее сложных аспектов изучения языка, так как требует не только лингвистических знаний, но и беглости, последовательности и уверенности в выражении мыслей. В исследовании рассматриваются различные виды обратной связи - работа над ошибками, формирующая и мотивационная - и их влияние на речевую деятельность обучающихся. Кроме того, обсуждаются практические стратегии предоставления эффективной обратной связи в условиях учебного класса. Полученные результаты показывают, что регулярная и конструктивная обратная связь способствует значительному развитию устных речевых умений учащихся.

Ключевые слова: обратная связь преподавателя, устные речевые навыки, беглость речи, корректирующая обратная связь, изучение языка, взаимодействие в классе, мотивация.

Kirish. Bugungi globallashuv davriga kelib ingliz tilini o'qitish nafaqat ta'lim tizimida balki kasbiy faoliyat hamda xalqaro muloqotda ham sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, til o'rganish jarayonida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi [1]. Ko'plab o'quvchilar grammatik va lug'aviy bilimga ega bo'lishiga qaramasdan, ravon va ishonchli tarzda fikr ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri — bu o'qituvchi tomonidan beriladigan muntazam fikr-mulohazadir.

O'qituvchining fikri o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadi, xatolarini aniqlashga yordam beradi va ularning umumiy nutq faoliyatini yaxshilaydi [2]. Samarali fikr-mulohaza nafaqat xatolarni tuzatadi, balki o'quvchilarni rag'batlantirishga yordam beradi va ularda ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Afsuski, ko'plab sinf sharoitlarida tanqidiy fikr bildirish qisman cheklangan yoki samarali tarzda berilmaydi, bu esa o'quvchilarning rivojlanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, ushbu maqolada dars jarayonida va undan tashqarida o'qituvchi beradigan xulosaning og'zaki nutq

ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish va turli fikr-mulohaza turlarining o'quvchilar nutq faoliyatiga ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi fikr-mulohazasi masalasi ko'pgina tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ellis o'zining tadqiqotida kamchiliklarni tuzatishga doir fikr-mulohaza nafaqat o'quvchilarning xatolarini kamaytirishda, balki o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ham muhim omil ekanini ta'kidlab o'tadi [3]. Lyster va Ranta esa o'quvchilarning javoblari orqali fikr-mulohazani o'rganib, tuzatishning o'quvchilar nutq faoliyatiga bevosita ta'sirini o'rgangan [4].

So'nggi yillarga kelib mulohazani berishning turli shakllari, xususan darhol (immediate) va faoliyatdan keyingi yoki kechiktirilgan (delayed) fikr-mulohazalar keng muhokama qilinmoqda. Qorihah, Anam va Munir kabilar ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganadigan sinflarda o'qituvchilarning ushbu ikki turdagi fikr-mulohazadan muntazam foydalanish strategiyalarini tahlil qilib, ularning o'quvchilarning nutqlaridagi ravonlik va aniqlikka turlicha ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [5].

Sato va Lyster o'quvchilarning tengdoshlar va o'qituvchi tomonidan berilgan tanqidiy fikrlarga bo'lgan qarashlarini solishtirib, o'quvchilarning motivatsiyasi va nutq natijalarida sezilarli farqlarni qayd etgan [6]. Bu esa fikr-mulohazani faqat o'qituvchi emas, balki tengdoshlar ham samarali berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Zhang va Rahimi esa ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganadigan sinflarda og'zaki nutqdagi xatolarni tuzatish fikr-mulohazasini o'qitish va o'rganish nuqtayi nazaridan tahlil qilib, konstruktiv fikr-mulohaza o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda eng muhim pedagogik vositalardan biri ekanini ta'kidlagan [7].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi fikr-mulohazasi o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotlar fikr-mulohazani berishda vaqtni to'g'ri tanlash, uslubni moslashtirish va motivatsion yondashuvni qo'llash o'quvchilarning nutq faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchining mulohazasi o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, xatolarni tuzatish (error correction) va kechiktirilgan fikr-mulohaza (delayed feedback) o'quvchilarning nutq faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi.

Birinchi navbatda, xatolarni tuzatish o'quvchilarga grammatik, lug'aviy va talaffuzdagi xatolarini aniqlash imkonini beradi [8]. Aniq va ijobiy qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchilar o'z zaif tomonlarini anglashga muvaffaq bo'ladilar va kelajakdagi topshiriqlarda xatolarni kamaytirishga erishadi. Bu jarayon tilning aniqligini oshiradi va uzoq muddatli rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ko'pgina tadqiqotlar xatolarni tuzatish haqida berilgan o'qituvchining fikr-mulohazasi o'quvchilarning og'zaki nutq jarayonida ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Faoliyat tugagach beriladigan fikr-mulohaza kommunikativ topshiriqlarda alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish hamda rag'batlantirish orqali ularning ishonchini oshirishga qaratilgan mulohaza hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchini nutq jarayonida to'xtatmasdan, xatolarini qayd etadi va faoliyat yakunlanganidan keyin muhokama qilishga harakat qiladi. Bu yondashuv esa o'z

navbatida o'quvchilarga ravonlikni saqlash, fikrni erkin ifodalash va ishonch bilan gapirish hamda mantiqiy izchillikni saqlash imkonini yaratib beradi [9]. Tadqiqotlar faoliyatdan keyingi fikr-mulohaza tabiiy muloqotni buzmasdan, xatolarni samarali tarzda tuzatishga yordam berishini ko'rsatadi.

Misol tariqasida, juftlik yoki guruhli og'zaki nutq mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarning zamonlarni to'g'ri qo'llash, talaffuz yoki so'z tanlashdagi xatolarini kuzatadi. Faoliyat tugagach, bu xatolar doskaga yoziladi va umumiy muhokama qilinadi. Bu jarayon o'z-o'zini xatolarini kuzatgan holda xulosa qilishni va tengdoshlar tomonidan foydali ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy fikrlarni rag'batlantiradi [10]. Natijada, o'quvchilar nutqdagi aniqlikni oshiradi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, xatolarni tuzatish va nutqiy faoliyatdan keyingi fikr-mulohazani muvozanatli qo'llash o'quvchilar nutqining ravonligi, aniqligi va ishonchligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinfdagi amaliy tajriba fikr-mulohazaning ahamiyatini yaqqol ko'rsatib bera oladi. "My family" mavzusida o'tkazilgan darsda o'quvchilardan quyidagilar kabi mavzuga doir sodda gaplar tuzish talab qilindi:

"This is my mother";

"He is my brother";

"She is kind";

"That man is my father";

"My aunt is a teacher".

Mashg'ulot mobaynida o'quvchilar bir qator grammatik va talaffuz xatolariga yo'l qo'yidilar. Masalan, ba'zi o'quvchilar "He are my brother" yoki "She kind" deb aytdilar, boshqalar esa so'zlarni noto'g'ri talaffuz qildilar. Masalan, "mother" va "brother" so'zlari /mʌðər/ and /brʌðər/ shaklida talaffuz qilinadi. O'qituvchi bu vaziyatga javoban, boshlang'ich sinflarga yumshoq ohangda tushuntirish zarurligini anglagan holda mavzuni ham grammatik, ham lug'aviy jihatdan qaytadan asoslab berdi. Mavzuga qo'shimcha tarzda, to'g'ri talaffuzni tashkil etishga qaratilgan kichik og'zaki o'yin mashg'ulot o'tkazildi va mavzu mustahkamlandi.

Quyida oila a'zolari nomlarining ingliz tilida talaffuz qilinishi jadval tarzida aks ettirilgan.

Inglizcha so'z	O'zbekcha ma'nosi	O'qilishi
mother	ona	/ˈmʌðər/
father	ota	/ˈfɑːðər/ (BrE), /ˈfæðər/ (AmE)
brother	aka/uka	/ˈbrʌðər/
sister	opa/singil	/ˈsɪstər/
grandmother	buvi	/ˈgræn.mʌðər/
grandfather	bobo	/ˈgræn.fɑːðər/
son	o'g'il	/sʌn/
daughter	qiz	/ˈdɔːtər/ (BrE), /ˈdɑːtər/ (AmE)
uncle	tog'a/amaki	/ˈʌŋkəl/
aunt	xola/amma	/ænt/ (AmE), /ɑːnt/ (BrE)
cousin	jiyan	/ˈkʌzn/

O'qituvchi o'quvchilarni to'xtatmasdan, xatolarni qayd etdi va faoliyat tugagach muhokama qildi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini saqlab qolish va ravonlikni qo'llab-quvvatlashda samarali tajriba bo'ldi [11].

Dars jarayonidan so'ng xatolar va kamchiliklar doskaga yozildi hamda o'quvchilar bilan birgalikda tuzatildi. O'qituvchi yoshga mos tarzda rag'batlantiruvchi fikr-mulohaza berdi, bolalarni o'z-o'zini tuzatishga undadi. Natijada, o'quvchilar keyingi mashg'ulotlarda to'g'ri gap tuzishda sezilarli darajada yaxshilanish ko'rsatdilar, ishonch bilan gapira boshladilar va og'zaki nutq faoliyatida faol ishtirok etishga erishdilar.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi beradigan fikr-mulohazasi (feedback) o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Xatolarni tuzatish (corrective feedback) o'quvchilarga grammatik, leksik va talaffuzdagi kamchiliklarini anglash bilan

birga ularni bartaraf etishga ko'maklashadi. Nutqdan keyingi tuzatish (delayed feedback) esa o'quvchilarning ravonligi va ishonchini saqlashga yordam berib, nutq jarayonida erkin fikr bildira olish imkonini beradi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, nisbatan kechiktirilgan va o'z vaqtida berilgan fikr-mulohaza boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. O'quvchilar ko'proq ishtirok etishga harakat qiladi, gap tuzishda aniqlikni ta'minlaydi va o'z fikrini erkin ifodalashga erishadi. Bu esa ularning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirib beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga qaraganda, fikr-mulohaza berishda o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, berilayotgan topshiriq turini va psixologik

tayyorgarligini hisobga olishi zarur. Bu yondashuv o'quvchilarning nutq faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tavsiyalar. Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan fikr-mulohazani muntazam va tizimli ravishda qo'llash o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fikr-mulohaza berish faqatgina xatolarni tuzatish vositasi bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, nutq faoliyatini ongli ravishda boshqarish va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Avvalo, xatolarni tuzatishda o'quvchilarning yoshga doir va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xatolarni keskin tanqid qilish emas, balki yumshoq, rag'batlantiruvchi tarzda tuzatish samarali natija beradi. Bu yondashuv ularning nutq faoliyatida qo'rquvni kamaytirishga xizmat qiladi va o'z fikrini erkin ifodalashga undaydi.

Shuningdek, nutq faoliyatidan keyingi fikr-mulohazadan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutq ravonligi va o'ziga bo'lgan ishonchini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchini nutq jarayonida to'xtatmasdan, xatolarni

qayd etib, faoliyat yakunlanganidan keyin muhokama qilsa, o'quvchi o'z fikrini mantiqiy va izchil tarzda erkin bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa tabiiy muloqot muhitini buzmasdan, xatolarni samarali tuzatishga yordam beradi.

O'quvchilarga o'z nutqini baholash va o'z-o'zini tuzatish imkoniyatini berish ham muhim metodik vosita hisoblanadi. O'z nutqini tahlil qilish orqali o'quvchilar metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi, ya'ni o'z bilimini nazorat qilish va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon ularni mustaqil o'rganish jarayoniga tayyorlaydi.

Juftlik va guruhli mashg'ulotlarda fikr-mulohazani rag'batlantiruvchi va motivatsion tarzda berish o'quvchilarning ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini e'tirof etib, ularni rag'batlantirsa, bu sinfda ijobiy raqobat muhitini shakllantiradi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Umuman olganda, tizimli va konstruktiv fikr-mulohaza o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda, ularning o'ziga ishonchini mustahkamlashda va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ellis, R. (2009). Tuzatish fikr-mulohazasi va o'qituvchi rivojlanishi. *L2 Journal*, 1(1), 2–18.
2. Lyster, R., & Ranta, L. (1997). Tuzatish fikr-mulohazasi va o'quvchi javobi. Ikkinchi tilni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlar, 19(1), 37–66.
3. Qorihah, D., Anam, S., & Munir, A. (2025). Ingliz tili darslarida darhol va kechiktirilgan tuzatish fikr-mulohazalarini berishda o'qituvchilarning strategiyalari. *IDEAS: Ingliz tilini o'qitish va o'rganish, lingvistika va adabiyot jurnali*, 13(2).
4. Sato, M., & Lyster, R. (2021). O'quvchilarning tengdosh va o'qituvchi tomonidan berilgan tuzatish fikr-mulohazasi sharoitidagi qarashlari va natijalari. *Ta'limiy baholash bo'yicha tadqiqotlar*, 70, 100995.
5. Zhang, X., & Rahimi, M. (2021). Chet tili sifatida ingliz tili darslarida og'zaki tuzatish fikr-mulohazasi: o'qitish va o'rganish nuqtayi nazaridan. *Heliyon*, 7(7), e07550.